# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI KO‘RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI

**Karjaubaeva Roza Saodatdin qizi**

Qoraqalpoq davlat universiteti

Turizm va mehmondo‘stlik yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

karjaubaevaroza@gmail.com +998907001702

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi, uning asosiy ko‘rsatkichlari va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, turizmning hududiy iqtisodiyotga ta’siri va uni yanada rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** turizm, iqtisodiy samaradorlik, Qoraqalpog‘iston, turizm infratuzilmasi, investitsiya, ichki turizm, xizmatlar bozori, turistik oqim, eksport.

**Kirish.** Bugungi kunda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida ham turizmni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan.

Jumladan, 2025-yil 15-maydagi PF-87-son Farmonga muvofiq, mamlakatda turizm oqimini keskin oshirish, xizmatlar eksportini kengaytirish va ichki turizmni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo‘lib, 2025-yil yakuniga qadar 15,8 million xorijiy turistlar tashrifi hamda 40 million ichki sayohatni amalga oshirish rejalashtirilgan.[1]

Qoraqalpog‘iston Respublikasining turistik salohiyati. Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘zining noyob tabiiy-landshaft resurslari, tarixiy obidalari va ekologik hududlari bilan ajralib turadi. Orol dengizi hududi, qadimiy qal’alar, milliy madaniyat va an’analar turizmni rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Hududda ekologik, madaniy, gastronomik va ekstremal turizm yo‘nalishlarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud bo‘lib, ayniqsa gastronomik turizm milliy taomlar orqali turistlarni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi[2].

Turizm sohasining iqtisodiy samaradorligi quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar orqali baholanadi:

- Turistik oqim hajmi (xorijiy va mahalliy turistlar soni)
- Turizm xizmatlari eksporti hajmi
- Hududiy yalpi mahsulotdagi ulushi
- Bandlik darajasi
- Mehmonxona va xizmat ko‘rsatish ob’ektlarining bandligi

So‘nggi yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizmni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda:

- Ichki turizmning faollashuvi – aholining hududlar bo‘ylab sayohatlari ortib bormoqda;

- Yangi turistik yo‘nalishlarning yaratilishi – ekologik va etnografik marshrutlar kengaymoqda;
- Investitsiyalar hajmining oshishi – mehmonxona va servis ob’ektlari soni ko‘paymoqda;
- Davlat qo‘llab-quvvatlashi – imtiyozlar va subsidiyalar tizimi joriy etilmoqda.

Yangi O‘zbekistonni barpo etishda turizmning o‘ziga xos o‘rni borligini hisobga olib, sohani rivojlantirish uchun qator ustuvor vazifalar belgilab berildi. 2025-yilda O‘zbekistonga 11,7 mln chet elliklar turistik maqsadlarda kelgan. Bu 2024-yilga nisbatan qariyb 47 foizga ko‘p. Shu davrda O‘zbekistonga kelayotgan afg‘onistonliklar soni 6,5 barobarga, xitoyliklar soni 3,8 barobarga, turkmanistonliklar soni 87 foizga oshgan[3].

Xorijdan kelgan sayyohlarni mamlakatlar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak, asosan Rossiya, Qozog‘iston, Fransiya, Turkiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Buyuk Britaniya, AQSH va Xitoydan kelganlar ko‘pchilikni tashkil etadi.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish uchun yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan topshiriqlarni bajarish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham bir qator vazifalar belgilab olingan. Bu borada turizm resurslariga boy Qoraqalpog‘iston o‘zining boy madaniy merosi, tarixiy-madaniy yodgorliklari, qo‘riqxonalari va rang-barang landshaftlari bilan noyob turizmning alohida turlarini rivojlantirish mumkin.

Bu borada Qoraqalpog‘iston Respublikasi turizm imkoniyatlaridan ayrim o‘ziga xos jihatlari va istiqbollarini ko‘rib chiqamiz:

• tarixiy va madaniy turizm yo‘nalishi bo‘yicha to‘xtaladigan bo‘lsak, mintaqa qadimiy tarixga ega bo‘lib, antik, ilk o‘rta asrlar va o‘rta asrlarga oid me’moriy majmualar joylashganligi tashrif buyuruvchilarga mintaqaning boy tarixiy-madaniy merosi bilan tanishish imkonini beradi;

• mintaqadagi Orol dengizi jiddiy ekologik muammolarga duch kelayotgan bir paytda, uning chekinayotgan suvlari va o‘zgaruvchan landshaftlari ekoturistlar va tadqiqotchilarning e’tiborini tortmoqda;

• sayyohlar va tadqiqotchilar Orol dengizi mintaqasi inson faoliyatining noto‘g‘ri olib borilishi natijasida yuzaga kelgan ekologik oqibatlarni o‘rganish, atrof-muhitni saqlash va qayta tiklash borasida olib borilayotgan ishlarni muhokama qilish uchun imkoniyatlar beradi;

• mintaqada Barsa-Kelmes qo‘riqxonasi va Ustyurt platosi kabi qo‘riqlanadigan hududlar joylashganligi, sayyohlar uchun ekotizimlar, yovvoyi tabiatni, qushlarni kuzatish, ochiq havoda sayr qilish va cho‘lda qurilgan maxsus lagerlarda tunashni tavsiya etadi;

• Qoraqalpoq xalqining madaniyati o‘zining qadimiy va an’anaviy hunarmandchiligi, jumladan, yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik, zargarlik, kashtachilik, gilam to‘qish buyumlari bilan mashhur bo‘lib, sayyohlarga amaliy san’ati bilan tanishish va hunarmandlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlarni xarid qilish bilan birgalikda madaniy almashinuvni rivojlantirishi mumkin;

• mintaqaning bepoyon Qizilqum cho‘li o‘zining imkoniyatlari bilan, xususan, cho‘l sayohatlari, tuya va otlarda sayr qilish, ochiq osmon ostida yulduzlarni tomosha qilish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Qoraqalpog‘iston o‘zining turistik salohiyatini to‘liq yuzaga chiqarish uchun infratuzilmani takomillashtirish, transport logistik aloqani rivojlantirish, turmarshrutlarni targ‘ib qilish va marketing

tadbirlarini muntazam ravishda olib borish, madaniy va tabiiy ob'ektlarni asl ko'rinishida saqlash kabi omillar xalqaro bozorda mintaqa turizmiga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi turizm bozori istiqbolli hisoblanadi, chunki mintaqa o'zining boy tarixiy me'rosi, tabiatining go'zalligi, etnografiyasi, noyob ekologik landshaftlarini o'zida mujassam etgan. Qoraqalpog'iston mavjud turistik resurslarni o'zlashtirishda faol investitsiyalarni jalb qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlash orqali sayyohlarni jalb qilishi va mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shishi kerak[4].

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2025-yilda faoliyat yuritayotgan turistlarga xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlar soni 114 tani, ular tomonidan xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni 1212.9 mingni, shundan qabul qilinganlar soni 1402 tani tashkil etgan.

Bundagi asosiy muammolardan biri Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat yuritayotgan turistik firma va tashkilotlarning hech biri xorijiy va MDH davlatlaridan turistlarni qabul qilmagan. Shu bilan birga Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat yuritayotgan turistik firma va tashkilotlar tomonidan yuborilgan turistlarning statistikasiga qaraydigan bo'lsak, 2025 yilda uzoq xorijiy davlatlarga 52 nafar, MDH davlatlariga birorta ham turist yuborilmagan, mamlakatimiz bo'yicha 8250 nafar turistga xizmatlar ko'rsatilgan[5].

Qoraqalpog'iston Respublikasiga kelayotgan xorijiy turistlar mamlakatimizning boshqa hududlarida joylashgan turistik firma va tashkilotlar tomonidan olib kelinmoqda. Bunday muammolarni hal etishda mintaqaviy turizm bozorida marketing tadqiqotlari va yangi xizmatlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'istonda mehmonxona xizmatlari bandligi past darajada bo'lib, bu infratuzilma va marketing muammolari bilan bog'liq. Shu bilan birga, turizm rivoji hududda yangi ish o'rinlari yaratish, xizmatlar sohasini kengaytirish va mahalliy byudjet daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

**Xulosa**. Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmni rivojlantirish katta iqtisodiy salohiyatga ega bo'lib, uni samarali amalga oshirish hududning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Turizm infratuzilmasini yaxshilash, xizmatlar sifatini oshirish, marketing strategiyalarini kuchaytirish hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni yanada oshirish mumkin. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan farmon va qarorlar ushbu jarayonni jadallashtirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-87-son Farmoni, 2025-yil 15-may.
2. Davlatyorova A.Q. Qoraqalpog'iston Respublikasida ichki turizmni rivojlantirish imkoniyatlari.
3. Tursunova G.R. Qoraqalpog'iston Respublikasida gastronomik turizmni rivojlantirish.
4. Xasanov D.I. Hududiy turizm salohiyatini baholash nazariyasi.
5. Abduvaliev A.A. Turizm iqtisodiyoti. Toshkent, 2022